XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-avgust VI-61-90-5-210-K/24 G‘ozg‘on shahar

Shahar mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar to‘g‘risida.

Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 30-iyuldagi 12-238/20-07038/423-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 21 bob, 126-143-moddalariga muvofiq shahar mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2024-yil 30-iyuldagi 12-238/20-07038/423-sonli xatiga ko`ra shahar mahalliy budjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy byudjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan jami **182 000 000 (bir yuz sakson ikki million) so‘m** mablag‘ **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Budjet tashkilotlari va muassasalari hamda budjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasin.

4. Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Boboyev), shahar G‘aznachilik bo‘linmasi bilan birgalikda:

Mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Zoyirov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha (D.Egamova) doimiy komissiya zimmasiga yuklansin.

Sessiyada raislik qiluvchi KUSHAKOV FURKAT BERDIYEVICH

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 21-avgustdagi
VI-61-90-5-210-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Shahar mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasining ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltiriladigan mablag‘lar

№	Tashkilot va muassasa nom	Maqsadi	Ajratiladigan mablag‘ miq dori (mln so‘mda)	Izoh
1	Shahar hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son va 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	54.6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-son va 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-son qarorlari
2	Madaniyat bo’limiga	“yoshlar oyligi” doirasida G’ozg’on shahrida “Yangi O’zbekiston yoshlari birlashaylik” shiori ostida yoshlar festivalini o’tkazish bilan bog’liq xarajatlarga (sahna, xonanda va boshlaovchiuchun)	95.6	G’ozg’on shahar hokimi o’rinbosari R.Shodievning 31.07.2024 yildagi bildirgisi
3	Shahar hokimligiga	Yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro’yxatidan o’tkazish ishlari uchun	5	Viloyat hokimining 2024 yil 4 iyuldagi 186-5-0-Q/24-sonli qarorining 6-bandi
4	Shahar hokimligiga	Ochilov Suponboyning iyul, avgust va sentyabr oylari uchun moddiy yordam puli uchun	5.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.08.2021 yildagi PQ-5216-sonli qarori va Navoiy viloyati hokimining 16.08.2021 yildagi 39-5-0-Q/21-sonli qaror

5	Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limiga	Umumta’lim maktablarini kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko’rish uchun	21.7	G’ozg’on shahar hokimi o’rinbosari R.Shodievning 31.07.2024 yildagi bildirgisi
Jami			**182**	